

INTEGRATIV O'QUV METODLARINING TURLARI VA ULARNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Kalit soʻzlar: *metod, metodika, intellektual, lingvistik kompetensiya, integratsiya, innovatsiya, kommunikativ ko'nikma, didaktik vositalar, debatlar, keys tahlillar*

Amaliy jihatdan integrativ metodlar turli fanlarning elementlarini uyg'unlashtirgan holda muloqotga asoslangan faol o'quv muhitini yaratadi. Masalan, adabiyot va san'at uyg'unligidagi darsda o'quvchi qahramonning obrazini nafaqat so'z bilan tavsiflaydi, balki uni rasmda ifoda etadi, bu jarayonda esa leksik boylik, ifoda qobiliyati va hissiy muloqot rivojlanadi. Yoki tabiatshunoslik va ona tili fanlari uyg'unlashtirilgan mashg'ulotda bola so'z boyligidan foydalangan holda voqealarni tushuntiradi, savol beradi va xulosa chiqaradi.

Integrativ metodlar amaliy jihatdan ta'limning individuallashtirishini ham ta'minlaydi: har bir bola o'z bilish tarzi, qiziqishi va nutqiy salohiyatiga qarab faoliyatda ishtirok etadi. Kimdir rolli o'yinda o'zini erkin his etsa, boshqasi tadqiqotga asoslangan yozma ish orqali o'zini ko'rsatishi mumkin. Bu esa har bir bolaning nutqiy qobiliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu sababli, integrativ metodlarning amaliy ko'rinishlarini bilish va ularni maqsadga muvofiq tanlab qo'llash o'qituvchi uchun faqat metodik vazifa emas, balki ta'lim jarayonini faollashtirish, shaxsning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishning muhim shartidir.

Amaliy usullar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda nutqiy faollikni kuchaytiradi, ularni guruhda ishlash, fikrlash, savol berish va o'z nuqtai nazarini himoya qilishga rag'batlantiradi. Masalan, rolli o'yinlar, keys-tahlillar, jamoaviy hikoya tuzish, debat va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchi ma'lumotni faqat eshitmaydi, balki uni qayta ifoda etadi, shaxsiy munosabat bildiradi va o'rtoqlari bilan fikr almashadi. Bu jarayonda bolalar so'z boyligini boshiradi, nutqiy strukturalarni ongli ravishda qo'llashni o'rganadi va nutq madaniyatini shakllantiradi. Bu haqda taniqli pedagog olim V.V. Davыdov shunday yozadi: "Bola nutqiy faoliyatni faqat amaliy muloqot jarayonida o'zlashtiradi, u yerda u fikr almashadi, muhokama qiladi va ijtimoiy munosabat qurishni o'rganadi".²⁵ Shu nuqtai nazardan, amaliy usullar bolalarning kommunikativ rivojlanishida nafaqat vosita, balki markaziy mexanizm vazifasini bajaradi.

Integrativ nuqtai nazardan, muammoli va tadqiqot elementlariga asoslangan mashg'ulotlar adabiyot, ijtimoiy fanlar, axloqshunoslik va hatto tabiatshunoslik bilimlarini uyg'unlashtirish imkonini yaratadi. Masalan, ekologik muammo muhokamasida bolalar tabiatshunoslikdagi bilimlarini ishga solib, axloqiy pozitsiyasi orqali o'z munosabatini bildirishi, adabiy qahramonlar haqida gap ketganda esa badiiy obrazlarni tahlil qilish orqali mulohazali xulosalar chiqarishi mumkin. Shu bois, muammoli va tadqiqot elementlariga

²⁵ Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Институт развития личности, 2000. – С. 128.

asoslangan mashg'ulotlar bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular ta'lim jarayonini jonli va mazmunli qiladi, bolalarni faol ishtirokchiga aylantirib, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Fanlararo uyg'un darslar boshlang'ich ta'limda integrativ yondashuvning eng yorqin ifodasi bo'lib, ular orqali o'quvchilar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydilar, bilimlarni hayotiy va ma'naviy jihatdan boyitib, muloqot va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday darslar, odatda, bir vaqtda ikki yoki undan ortiq fanning mazmuniy elementlarini uyg'unlashtirgan holda tashkil etiladi. Masalan, san'at va til uyg'unligidagi mashg'ulotlarda o'quvchilar tasviriy san'at yoki musiqa orqali matn mazmunini chuqurroq his etish, uning hissiy-obrazli jihatlarini anglash, o'z tasavvurini so'zlar bilan ifoda qilish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, she'r yoki hikoyadan keyin rasm chizish, musiqa qo'yib badiiy obrazlarni tasvirlash, suratlar orqali hikoya tuzish kabi mashg'ulotlar bolalarda ijodiy mulohaza, obrazli fikrlash va nutqiy ifoda qobiliyatini rivojlantiradi.

Fanlararo uyg'un darslarning integrativ ahamiyati shundaki, ular bolalarning bilimlarini alohida parchalar sifatida emas, balki bir-biri bilan bog'liq, uzviy yaxlit jarayon sifatida qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, bir mavzuda adabiyot, tarix, san'at va axloqshunoslik elementlarini uyg'unlashtirish bolalarda bilimlarni kompleks anglash, ma'naviy va hissiy rivojlanish, shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy muloqotda ishtirok etish salohiyatini kuchaytiradi.

Ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini faollashtirish boshlang'ich sinfda qo'llaniladigan integrativ metodlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bolalar yoshida muloqot faqat axborot almashish orqali emas, balki shaxsiy munosabatlarni shakllantirish, his-tuyg'ularni ifoda etish, tengdoshlar bilan hamkorlikda umumiy maqsad sari harakat qilish jarayonida rivojlanadi. Integrativ mashg'ulotlarda bolalar guruhli topshiriqlar, ijodiy ishlar, rolli o'yinlar, kvestlar va debatlar qatnashib, muloqotga kirishish, o'z fikrini bayon qilish, boshqalarning fikrini tinglash, baholash va zarur hollarda o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu jarayonda ular ijtimoiy aloqalar quradi, ishonchli muloqot, hurmat va hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi. A.Xajong, V.Ambedkar ta'kidlaganidek: "Maktabda guruhli muloqot va tengdoshlar bilan hamkorlikka asoslangan mashg'ulotlar orqali bolalar ijtimoiy malaka va muloqot strategiyalarini asta-sekinlik bilan egallab boradilar, bu esa ularning kelgusi shaxsiy va akademik muvaffaqiyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi".²⁶ Shu jihatdan integrativ metodlar bolalarda nafaqat ma'naviy va aqliy rivojlanishni ta'minlaydi, balki ularni jamoada ishlash, maslahatlashish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, mushtarak vazifalarni birgalikda hal etishga yo'naltiradi. Bu esa ijtimoiy muloqot salohiyatini faollashtirishning eng samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi.

Integrativ metodlar: debatlar, keys-tahlillar, PMI yoki kvestlar orqali bolalarda erkin fikr yuritish, biror masalaga bir nechta qarash nuqtasidan yondashish, standart javoblar

²⁶ Hajong A., Ambedkar V. *Enhancing communication skills and self-confidence through constructivist teaching: A comparative study* // [Electronic resource]. — May 2025.

bilan cheklanmaslik imkoniyatini yaratadi. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash salohiyatini shakllantirib, bilimlarni yangicha uyg'unlashtirish, original yechimlar taklif etish va ijodiy chiqish yo'llarini topish qobiliyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matkarimov M.A. "PISA" xalqaro o'quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari/ "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №8(93) 2020 yil.
2. Najmitdinova T.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: dis. kand. ped. nauk.- Toshkent, 2006. - 159 b.
3. Nishonova Z. Mustakil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalk ta'limi. - Toshket, 2001. №1.- 38 – 40 b.
4. Olimov T. Ta'lim texnologiyalari. Monografiya. -T.: 2007. -102 b.
5. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.
6. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. // "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2019 yil № 7-son. - 3-8-b.